

Uzbekistan Airways va Airbus hamkorligining 30 yilligini nishonlamoqda

2023 16 Iyun

Uzoq hamkorlikda bajarilgan ishlar, Airbus zavodlariga xizmat safari, Germaniya va Fransiyada uchuvchilarni qayta tayyorlashdan so'ng, 1993-yil 16-iyunda aviakompaniya birinchi Airbus A310 havo kemasini qabul qilib oldi. Ko'p o'tmay, aviapark shu turdagi yana ikkita havo kemasi bilan ko'paytirildi.

Airbus A310 laynerlari Toshkentdan Nyu-York, Moskva, London, Frankfurt, Amsterdam, Istanbul, Tel-Aviv, Bangkok, Kuala-Lumpur va Seulga parvozlarni amalga oshirgan. Har bir havo kemasi 192 yo'lovchiga mo'ljallangan keng va shinam salonlarga ega edi.

30 yildan keyin, 2023-yil 16-iyun kuni aviakompaniya parki o'n sakkizinchi Airbus A320neo havo kemasi bilan to'ldirilmoqda va shu yil oxirigacha yana to'rtta ushbu turdagi havo kemalarini qabul qilish kutilyapti.